TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI
VAZIRLIGINING ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
ДОШКОЛЬНОГО И
ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ ПРЕПОДАВАНИЕ

LANGUAGE AND LITERATURE TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

1991-yildan
chiqa boshlagan

2023-yil. 12-son

ISSN 2010-5584

til_adabiyiot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyiot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyiot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyiot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz

Bugungi kunda Yangi O'zbekistonda inson qadri ulug'lanadigan adolatli, erkin va obod jamiyat, xalqparvar davlat, farovon hayot barpo etishga qaratilgan islohotlarimiz jadid bobolarimizning ezgu g'oya va dasturlariga har jihatdan uyg'un va hamohangdir.

Shavkat MIRZIYOYEV.

"Jadidlar: milliy o'zlik, istiqlol va davlatchilik g'oyalari"

Xalqaro ilmiy konferensiyasi doirasidagi ochiq







Ushbu sonda



TILSHUNOSLIK

Ingliz va o'zbek tillarida qishloq xo'jaligiga oid birikmalarning qiyosiy tahlili 12-bet



TADQIQOT

Ko'rib tushunish – kasbiy malakani rivojlantiruvchi muhim ko'nikma 20-bet



TAHLIL

Ilmiy-ommabop asarlarning lisoniy va uslubiy xususiyatlari 30-bet



СВЕТ НЕГАСНУЩИХ ИМЕН

Он говорил о временах грядущих… 78-bet

1991-yildan chiqa boshlagan

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
ДОШКОЛЬНОГО И
ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ ПРЕПОДАВАНИЕ

LANGUAGE AND LITERATURE TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2014-yil 19-dekabrda 0055-raqam bilan qayta ro'yxatga olingan.

2023-yil.
12-son.

Tahrir hay'ati:

Hilola UMAROVA
Dilshod KENJAYEV
Nizomiddin MAHMUDOV
Yorqinjon ODILOV
Nasirullo MIRKURBANOV
Jabbor ESHONQULOV
Valijon QODIROV
Baxtiyor DANIYAROV
Abdurahim NOSIROV
Tolib ENAZAROV
To'lqin SAYDALIYEV
Ravshan JOMONOV
Zulxumor MIRZAYEVA
Qozoqboy YO'LDOSHEV
Tajixon SABITOVA
Salima JUMAYEVA
Nilufar NAMOZOVA
Qayum BAYMIROV
Adiba DAVLATOVA
Lutfullo JO'RAYEV
(bosh muharrir o'rinbosari)

Bosh muharrir

Bahodir JOVLIYEV

Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV
Gulnoza VALIYEVA

Nashr uchun mas'ullar:

Nilufar NAMOZOVA
Nigora URALOVA
Nargis BOBODJANOVA

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri
Navoiy ko'chasi 30-uy.
Telefon: (98) 121-74-16,
(71) 233-03-10, (71) 233-03-45,
(71) 233-03-67.
e-mail: til_adabiyot@umail.uz
veb-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Jurnaldan ko'chirib bosilgan maqolalar "Til va adabiyot ta'limi"dan olindi, deb izohlanishi shart.

Jurnalda nashr etilgan maqolalarda mualliflarning tahririyat nuqtayi nazariga muvofiq kelmaydigan fikr-mulohazalari bosilishi mumkin.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Mualliflarning ismi va familiyasi shaxsini tasdiqlovchi pasportiga muvofiq yoziladi.

Bosmaxonaga. 2023.25.12. da topshirildi. Ofset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi 60x841/8. Shartli bosma tabog'i 6,0. "Arial" garniturasi. 10, 11 kegl. "ECO TEXTILE PRODUCT" MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Manzil: Toshkent sh. Mirobod tum., Matbuotchilar ko'chasi 32-uy. Buyurtma ___ Adadi 3550 nusxa. Bahosi kelishilgan narxda.

MUNDARIJA

Adabiyotshunoslik
Baxtiyor Mengliyev. Badiiy asar tahliliga sistemaviy yondashuv 3

Ilg'or pedagogik texnologiyalar
Zilola Salisheva. Monologik nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirishda noan'anaviy dars shakllarining o'rni 6
Gulnoz Komilova. Ingliz tili mashg'ulotlarida katta va kichik guruhlar bilan ishlashning ahamiyati 8

Metodik tavsiya
Shaxlo Xidoyatova. Uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirishda pedagogning o'rni 10

Tilshunoslik
Hushnoza Abduvohidova. Ingliz va o'zbek tillarida qishloq xo'jaligiga oid birikmalarning qiyosiy tahlili 12
Aisafar Murtazayeva. Nutq kompetensiyalarini rivojlantirishda lingvodidaktikaning ahamiyati 14
Iroda Mamarajabova. "Vaqt" konseptiga oid birliklarning tarixiy tadqiqi 15
Gulmira Turdiyeva. Ijobiy his-hayajonni ifodalovchi leksemalarning semantik tasnifi 17
Elyor Imomov. Prerequisites for the emergence of professional lexis 19

Tadqiqot
G'ofir Hamroyev. Ko'rib tushunish – kasbiy malakani rivojlantiruvchi muhim ko'nikma 20
Muhammadjon Ergashev. Terminologik lug'atlar yaratishning asosiy masalalari 23
To'lqin Tog'ayev. Til siyosati va tilni rejalashtirish tushunchalari 25
Maftunaxon Ubaydullayeva. Turli tizimli tillarda "gender" atamasining qo'llanilishi 27
Obodon Adizova. Fransuz va o'zbek to'y marosimlari turlari, mohiyati va xususiyati 28

Tahlil
Saodat Shamaqsudova. Ilmiy-ommabop asarlarning lisoniy va uslubiy xususiyatlari 30
Xurshida Xamrakulova. Bolalarga atab aytilgan qo'shiqlarning xususiyatlari 32
Feruza Sultonqulova. Usmon Azimning tanosib san'atidan foydalanish mahorati 34
Rayhon Ergasheva. Sirojiddin Sayyid she'riyatida Alisher Navoiy va Bobur siymosi 35
Ro'zixon Usmonova. Jahon adabiyotida II jahon urushi manzaralari 36
Rayhona Narziqulova. Fentezi janrining lisoniy ifoda vositalari 38

Tarjimashunoslik
Yorqin Nurmatov. Some aspects of translation of Chinese medical terms 40

Kichik tadqiqot
Odina Ahmadjonova. Kompetensiya, kompetentlik tushunchalari, ilmiy sharhi va mohiyati 42
Mehrinisa Sulaymanova. O'zbek va qirg'iz xalqining taqinchoqlar bilan bog'liq magik-fetishistik qarashlarining kelib chiqishi asoslari 43
E'tiqodxon Ataqulova. "Sart" so'zi atrofidagi maqolalarda polemikaning namoyon bo'lishi 45
Malika Narzullaeva. Classification of academic words found in the works of researchers: a literature review 46
Mashhura Saydaliyeva. Gapirish nutq faoliyati turi va malaka sifatida 47
Erkin Raxmonov. Ajib muammoli adabiy usul ..... Muqovaning 3-beti

Используйте эти материалы
Ирина Морозова. Лингвокультурологический аспект в обучении русскому языку как иностранному 49

Языкознание
Гульшод Хамраева. Лексико-стилистическая и морфолого-стилистическая парадигма наречий русского языка 51
Эльвира Минибаева. Способы образования слов 52
Саодат Юлдашева. Роль и значение русского языка в современном обществе 53

Литературоведение
Саодат Магдиева. Притчевые элементы в пьесе «нравственного эксперимента» А.Дударева «Рядовые» 55
Акбар Джуманов. Поэзия периода независимости 57

Научные исследования
Феруза Жумаева. Частеречная транспозиция в русском и узбекском языках: конъюнкционализация 59
Ольга Калинина. Использование новых методов в изучении русского языка в вузах 62
Комилхон Ходжаев. Концепции верности и измены в художественной литературе 64
Сурайё Хамраходжаева. Методическое обеспечение развития умений креативной письменной речи на основе исследованных теоретических положений и их апробация в ходе опытного обучения 68
Дильфуза Эргашева. Семья и семейные ценности в творчестве Л.Улицкой 70

Формы обучения
Азиза Бедилова, Саодат Исмаилова. Метод проектов как развитие креативности у студентов 72
Амина Атабекова. Использование технологии педагогических мастерских при обучении русскому языку будущих дипломатов и политологов 76

Свет негаснущих имен
Анатолий Лиходзиевский. «Он говорил о временах грядущих...» 78

Обсуждаем, спорим
Гулбахор Хаджикурбанова. Языковые тенденции среди молодежи 80

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosati qarori bilan Filologiya hamda Pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari (PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashr.

yaratib kelinmoqda. S.Sayyid ham uning tarixi, she'riyatiga katta qiziqishi tufayli ushbu mavzuga qo'l urdi. Bobur siymosi hamda uning adabiy merosi shoirning istiqlol davri she'riyatining asosiy mavzularidan biri sifatida yuzaga keldi. S.Sayyid bu buyuk siymoga bag'ishlab "Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur" dostonini yozadi. Ushbu doston Bobur Mirzoning "Boburnoma" asari ta'sirida yaratilgan. She'riy usulda shoir "Boburnoma" asarning yangi mohiyatini ochib bergan.

Shoh shoirning ohnomasi – "Boburnoma",
Harb-u zarb, janggohnomasi – "Boburnoma".
Firdavsiyning "Shohnoma"si bordir agar,
Turkiylarning shohnomasi – "Boburnoma" [3].

Doston o'ziga xos tuzilishga ega. Undagi "Ko'ngil", "Xazon fasli" kabi bag'ishlovlarda Boburning ruhiyati, kechinmalari badiiy va ta'sirchan ifodalangan. Shoir ijodkor sifatida real voqelikni badiiy voqelikka aylantirish jarayonida Boburning mardona xarakterini ko'rsata olgan. Har qanday jang-u jadallar saltanat dag'dag'alari ortidagi qon to'kishlar, muntazam ot ustida, qo'lida qilich-qalqon-u, egnida temir sovut bilan o'zining yoniq yuragini, shoirona qalbini saqlab qololgan nazokatli Bobur ko'nglidagi favqulodda bir hayotsevarlik yorqin ifodalangan:

Bog' xazon-u tog' xazon-u jumlayi olam xazon,
Tildagi nolam xazon-u, dildagi lolam xazon.
Kelgil, ey gul, sen mening fasli xazonrezimni ko'r,
Bo'lmagan olamda mendek hech biror odam xazon.
Siz to'kilmoq darsini mendan oling, ey bog'lar,
Kim, xazonim oldida ming bog' xazoni kam xazon.

Buyuk shoh Bobur Hindistonda temuriylarga xos ulug' bunyodkorlik an'analarini davom ettirib, muhtasham qasrlar va ariq-kanallar qazish, bog'lar bunyod etish, adabiyot, ilm-fan rivojiga homiylik qilish, yurtni va xalqni adolat bilan boshqarish ishlarini amalga oshirdi. Shoir masnaviy shaklidagi "Shoh Bobur" she'rida ulug' siymoning eng ezgu fazilatlarini tarannum etdi:

Buncha uzun oh tortdingiz, oh Bobur,
Muttahamlar dunyosida shoh Bobur.
Andijon-u Hind-u – yetti iqlimda
Topilmadi Sizga bir dodxoh, Bobur [3: 13].

Xulosa qilib aytganda, Sirojiddin Sayyidning Alisher Navoiy va Bobur Mirzoga bag'ishlab yozgan asarlarida ularning adabiyotimiz tarixida tutgan o'rni, adabiy merosi, umuminsoniy va milliy ildizlarini namoyon etib, o'ziga xos xususiyatlarini teran va ta'sirchan ifodalab berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017.
2. Sayyid S. Ko'ksimdagi zangorlarim. – Toshkent: Ma'naviyat, 2004.
3. Sayyid S. Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2010.

Ro'zixon USMONOVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

JAHON ADABIYOTIDA II JAHON URUSHI MANZARALARI

XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab jahon xalqlari o'rtasidagi iqtisodiy va madaniy aloqalar keng ko'lamda rivojlana boshladi. Bu jarayon uzoq mintaqalar adabiyotlari o'zaro ta'sirining kuchayishiga, jahon madaniyatining sifat va mazmun jihatdan yangi bosqichga ko'tarilishi va, qaysidir ma'noda, yangi adabiyotlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Zamonga qarab o'zgarib turadigan bu yangilanish adabiy jarayonda to'liq ro'yobga chiqdi. Mashhur nemis shoiri Gyote bu mavzuda o'zining ijobiy fikrini bildirib, birinchi marta "jahon adabiyoti" atamasini qo'lladi.

Umuminsoniy adabiyotning o'ziga xos xususiyatlari, asosan, quyidagi tamoyillar asosida farqlanadi:

- milliy o'ziga xoslikni saqlagan holda barqaror umumiy xususiyatlarga ega bo'lish;
- o'z milliy an'analariga, shuningdek, o'zga makon va zamon munosabatlarida bir-biriga bog'lanmagan adabiyotlarga tayanish;
- jamiyat ongida hamda badiiy an'analar zamirida umuminsoniy qadriyatlarni qaror toptirish;
- adabiyotni milliy ruh negizida tushuniladigan umuminsoniy qadriyatlarga qaratish va yo'naltirish.

Bu tamoyillarning negizida umuminsoniy qadriyatlarni milliy o'ziga xoslik zamirida tushunish asosiy mezon hisoblanadi.

Hozirgi globallashuv davrida jahon adabiyotida kechayotgan jarayonlarga nazar tashlasak, dunyo xalqlari adabiyotida umuminsoniy muammolar, g'oyalar mushtarakligini kuzatishimiz mumkin. Xalqlar adabiyotlari o'rtasidagi tafovutlar yo'qolib bormoqda, badiiyat mo'jizalari dunyo kitobxonining umumiy ma'naviy bisotiga aylanmoqda. Kompyuter asrida hozirgi kun kitobxoni jahon badiiy tafakkuri yaratgan ijod namunalari bilan tanishishning beqiyos imkoniyatlariga ega. Shu sababli ham ma'lum millat adabiyotida shakl bobida qilingan kutilmagan tajribalar, kashfiyotlar jahon kitobsevarlari tomonidan birdek qabul qilinmoqda. Hozirgi adabiy jarayonning muhim xususiyati uning mafkuradan xoli ekanligi, ijodkor istaganicha yozish, istagan yo'lni tanlash huquqiga ega ekanligidadir. Unda XX asr adabiyotidagi xilma-xil tamoyillarning belgilarini ko'rishimiz mumkin, ayni paytda eski adabiyotdan tamomila farqlanuvchi jihatlar ham mavjud. XX asrning

eng muhim hodisalaridan biri II jahon urushi va uning oqibatlari edi. Bu tabiiy ravishda jamiyatning har bir jabhasida o'z izini qoldirdi. Bu hodisa adabiyotni ham chetlab o'tmadi. Bu davr adabiyotida urush va u tufayli yuzaga kelgan qiyinchiliklar, xalq hayoti, ijtimoiy muammolar, ocharchilik, ta'lim, ilm-fandagi yo'qotishlar o'z aksini topdi.

Ikkinchi jahon urushi XX asr SSSR tarixidagi eng qiyin davrlardan biridir. Shuning uchun ham urushning dastlabki kunlaridanoq Ittifoq tarkibiga kiruvchi xalq azob-uqubatlarga bardosh berishi, g'alabaga ishonishi uchun barcha san'atkorlar va adabiyot arboblaridan asarlar yaratishni talab qildi. Binobarin, urush boshlanishi bilan adabiyot va san'at xalq tuyg'ularini safarbar etish, shafqatsizlikni butun voqeligida aks ettirish vazifasini o'z zimmasiga oldi. Urush yillarida bu tuyg'ularni eng yuqori darajaga ko'tarish uchun shiorlar, plakatlar, madhiyalar, filmlar, vizual va audio asboblardan foydalanildi. Bulardan tashqari, adabiyot san'atidagi barcha turdagi yozma matnlar ham urush yillarida kurashayotgan odamlarga umid va shijoat bag'ishladi. Roman, hikoya, she'r, maqola va ocherklar shular jumlasidandir. Urush yillarida yozuvchi va shoirlar askar, ko'plari muxbir sifatida frontda bo'ldilar. Jurnalistlarning vazifasi urush haqidagi ma'lumotlarni saf ortida turgan odamlarga yetkazishdir. O'sha davr adabiyoti realistik unsurlar, urushni boshidan kechirgan frontchi yozuvchi va shoirlarning kechinmalari bilan boyidi. Ikkinchi jahon urushi davridagi sovet adabiyotining asosiy g'oyasi – Vatan mavzusi. Adabiyot ahli orasida "Barcha kuchlar – dushmanni yengish uchun!" shiori amal qildi. Urush yillari ijodkorlar, asosan, lirika va publitsistikada barakali ijod qilishdi.

Shoirlar va kitobxonlar o'rtasidagi she'riy muloqot urush yillarida shoirlar va xalq o'rtasida she'riyatimiz tarixida misli ko'rilmagan samimiy aloqa o'rnatilganidan dalolat berdi. Xalq bilan yaqinlik 1941–1945-yillar lirikasining eng diqqatga sazovor va istisno xususiyatidir.

Vatan, urush, o'lim va o'lmaslik, dushmanga nafrat, harbiy birodarlik va o'rtoqlik, muhabbat va sadoqat, g'alaba orzusi, xalq taqdiri haqida fikr yuritish – harbiy she'riyatning asosiy motivlaridir. Tixonov, Surkov, Isakovskiy, Tvardovskiy she'rlarida vatan tashvishi va dushmanga shafqatsiz nafrat, yo'qotishning achchiqligi va urushning shafqatsiz bongini eshitish mumkin. Birgina Tvardovskiyning "Men qahramon o'sgan hovlida bo'ldim" deb boshlanuvchi she'rida urushning onalar bag'rida qoldirgan shafqatsiz izlari haqida hikoya qilinadi. Lirik qahramonning ichki kechinmalari sof va nozik holda tasvirlanadi. She'rda urushda o'g'lidan qora xat olgan onaning ruhiyat tasviri berilgan:

Bosilmagan uning ko'nglida faryod,
Ko'z yoshini to'kib olar pinhona, –
Fursat topildimi – o'qiydi bot-bot
Jimit qog'ozdagi so'zlarni ona.

Ona qalbi doimo farzandi yodi bilan yashaydi. Farzandidan kelgan maktublar dardiga darmon. Ularni o'qib, farzandining yurti, xalqi oldidagi farzandlik burchini ado etish chog'ida jon bergani ona yuragiga tasalli beradi:

Bir kun dovrug' yoydi o'g'lin ta'rifi,
Soldi jasorati qalblarga titroq.
Qishlog'ida uning ism-sharifi
Qadrdon emasdi ko'plarga biroq.
Chunki yosh edi-da, ishongan kim ham
Uning shundoq shuhrat qozonishiga.
Lekin onasi-chi? Onasi dildan
Bunga ishonardi, ishonardi, ha.

She'r 1970-yilda urush talofatlari barham topgan, xalq hayoti birmuncha yaxshilangan, yurtda tinchlik hukm surayotgan bir davrda yozilgan. Ammo jangda halok bo'lgan askarning onasi uchun bu urush keltirgan azob hech qachon nihoyasiga yetmaydi. U taqdiriga tan berishga majbur. Ammo inson umid bilan yashaydi. Bir farzandi el-yurt osoyishtaligi yo'lida, dushman bilan bo'lgan ayovsiz jangda mardlarcha jon berdi. Onaning umidi kichik o'g'lidan:

Kenjasiga boqar volida purg'am:
Qo'lidan ne kelar, ojizdir butkul.
Tirishar o'yinda, o'qishda u ham
Jasur akasiga o'xshashga nuqul.

Ulug' Vatan urushida halok bo'lgan minglab jangchilarning oilalari, farzandlari ulardan jasurlikni meros qilib oldilar. Shunday otalarga, akalarga munosib voris bo'lish uchun tirik qolganlar o'qishda, ishda, sanoatda o'zlarini ko'rsatdilar.

Bu she'r mazmun jihatidan buyuk o'zbek shoiri G'afur G'ulomning "Sog'inish" she'riga hamohang. Tvardovskiyning she'rida bosh qahramon ona, G'afur G'ulomda esa ota tasviri ifodalanadi. Mazkur she'rda o'g'lini urushga jo'natgan otaning ichki his-tuyg'ulari, qalb tug'yonlari aks etadi:

Kutaman, uzoqdan ko'rinsa bir ot,
Kelyapti, deyman ko'rinsa g'ubor.

Biz, ko'pincha, farzand sog'inchi haqida yozgan onalarni lirik qahramon sifatida tanlaymiz. Ammo bu she'rda o'g'li urushda ekan, farzandining g'alaba bilan, nurafshon tonglar umidi bilan qaytishiga ishonchi komil otaning qalbi, uning sabri kuylanadi. Asar biografik xarakterga ega ekanligi uchun ham o'quvchi qalbidan chuqur joy egallaydi.

Xulosa qilib aytganda, II jahon urushi yillarida Vatanga muhabbat va dushmanga nafrat tuyg'ulari, g'alabaga ishonch ruhi sezilib turadi. Barcha sohalar kabi adabiyot ilmi vakillari, shoir va yozuvchilar ham front ortida turib jangchilarga ruhan madad berishga intildilar, ularni ma'nan qo'llab-quvvatladilar. Bu davr she'riyati o'zining otashin chaqiriqlari, jangovar kayfiyati, nozik hislari bilan o'quvchi qalbini larzaga soladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tvardovskiy A.T. Front she'rlari. – Moskva, 1941.
2. Ежов И.С., Шамурин Е.И. Русская поэзия XX века. Антология. – Москва: Новая Москва, 1925.
3. Евтушенко Е. Строфы века: антология русской поэзии XX века. – Минск-Москва: Полифакт, 1995.
4. G'afur G'ulom. Asarlar. 10 tom. – Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1978.
5. ziyo.uz kutubxonasi.